

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 25 (1624), 2026-yil 6-fevral, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON – POKISTON: STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARINI YANADA MUSTAHKAMLASH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5-fevral kuni davlat tashrifi bilan Islomobodga keldi.



Pokiston havo hududida oliy martabali mehmonning samolyotiga ushbu mamlakat Harbiy havo kuchlarining qiruvchi uchoglari hamrohlik qildi.

“Nurxon” aeroportida davlatimiz rahbarini Pokiston Prezidenti Asif Ali Zardoriy, Bosh vazir Shahboz Sharif va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

O‘zbekiston Prezidenti Islomobod shahriga kelgach, “Global sanoat va mudofaa yechimlari” kompaniyasining bosh qarorgohiga tashrif buyurib, Mudofaa kuchlari Bosh qo‘mondoni — Qurolli Kuchlarning quruqlikdagi qo‘shinlari qo‘mondoni, feldmarshal Asim Munir bilan uchrashuv o‘tkazdi.

O‘zbekiston bilan Pokiston o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishning asosiy jihatlarini muhokama qilindi.

Harbiy va harbiy-texnik sohalardagi hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, bugungi kunda xavfsizlikka tahdid solayotgan xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo‘yicha sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirishga alohida e’tibor qaratildi.

Ikki mamlakatning yetakchi mudofaa sanoati korxonalari o‘rtasidagi kooperatsiya aloqalarini faollashtirish, harbiy mutaxassislarni tayyorlash dasturlarini kengaytirish, tajriba almashish va qo‘shma o‘quv tadbirlarini o‘tkazish muhimligi ta’kidlandi.

Transport va logistika sohasida istiqbolli infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish masalalari ham kun tartibida bo‘ldi.

Harbiy va harbiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha alohida “yo‘l xaritasi”ni tayyorlash yuzasidan kelishuvga erishildi.

O‘zbekiston Prezidenti uchrashuv yakunida “Global sanoat va mudofaa yechimlari” kompaniyasining ishlanmalari, jumladan, Pokistonning zamonaviy harbiy texnikasi va qurol-yarog‘ namunalari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbarini Islomobod shahrida ajratilgan qarorgohda Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari, tashqi ishlar vaziri Is’hoq Dor kutib oldi.

Shu yerda bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Is’hoq Dor davlatimiz rahbariga o‘tkazilishi rejalashtirilgan ikki tomonlama tadbirlar kun tartibi haqida ma’lumot berdi.

O‘zbekiston Prezidenti Bosh vazir o‘rinbosarini ushbu davlat tashrifini tashkil etishga qo‘shgan ulkan hissasini alohida qayd etdi.

Tashrif doirasida bo‘lib o‘tadigan oliy darajadagi muzokaralar va Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig‘ilishi O‘zbekiston — Pokiston strategik sheriklik munosabatlarini yangi amaliy mazmun bilan boyitishiga ishonch bildirildi.

Shundan so‘ng Pokiston Bosh vazirining qarorgohida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini rasmiy kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakatning davlat bayroqlari ko‘tarildi va faxriy qorovul saf tordii. Davlat madhiyalari yangradi.

Shavkat Mirziyoyev va Shahboz Sharif rasmiy delegatsiyalar a’zolarini qutladilar.

Rasmiy kutib olish marosimidan so‘ng Islomobod shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif tor doirada muzokara hamda oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig‘ilishini o‘tkazdilar.

Davlatimiz rahbari uchrashuv avvalida Bosh vazirni yaqinlashib kelayotgan muqaddas Ramazon oyi va Pokiston kuni bayrami bilan tabrikladi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O‘zbekiston — Pokiston strategik sheriklik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlashning amaliy jihatlarini atroflicha muhokama qilindi.

So‘nggi yillarda o‘zaro aloqalar faol tus olgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Siyosiy muloqot mustahkamlanib, parlamentlararo va idoralararo almashinuvlar jadal rivojlanmoqda.

O‘tgan yil yakunlariga ko‘ra o‘zaro savdo hajmi salkam 500 million dollarga yetdi. O‘zbekistonda Pokiston kapitali ishtirokidagi 230 ga yaqin korxona faoliyat yuritmoqda. Ikki mamlakat o‘rtasidagi ayaqqaqatnovlar ko‘paydi. Banklararo korrespondentlik munosabatlarini mustahkamlanmoqda.

To‘qimachilik, farmatsevtika, kimyo, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarda kooperatsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Tomonlar ushbu tashrif arafasida o‘tkazilgan siyosiy maslahatlashuvlar va Hukumatlararo komissiya yig‘ilishining natijalarini olqishladilar.



Tashrif doirasida O‘zbekiston sanoat mahsulotlarining ko‘rgazmasi o‘tkazilmoqda.

Ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari Muvofiqlashtiruvchi qo‘mitasining birinchi yig‘ilishini yaqin kunlarda Toshkentda o‘tkazish zarurligi ta’kidlandi.

Ishbilarmon doiralari o‘rtasida uzoq muddatli hamkorlik o‘rnatish maqsadida O‘zbekiston — Pokiston Ishbilarmonlar kengashini tashkil etish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Yaqin kelajakda o‘zaro tovar ayirboshlashni 2 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo‘yildi. Amaldagi Imtiyozli savdo bitimi doirasidagi mahsulotlar turini, shuningdek, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun fitosanitariya ruxsatnomalari ro‘yxatini yanada kengaytirish hamda O‘zbekistonning Lahor va Karachidagi savdo uyalaridan faol foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qilindi.

Tashrifga tayyorgarlik doirasida qishloq xo‘jaligi, elektrotexnika, geologiya, farmatsevtika, yengil sanoat, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va boshqa sohalarda qariyb 3,5 milliard dollarlik loyihalar portfeli shakllantirildi.

Transport va logistika aloqalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Transaf’g’on temir yo‘li loyihasini amalga oshirishni jadallashtirish va “Pokiston — Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” transport yo‘lagini rivojlantirish muhimligi ta’kidlandi.

Ikki mamlakat hududlarining o‘zaro aloqalari iqtisodiy hamkorlik rivojining asosiy drayverlaridan biri sifatida belgilandi.

O‘zbekiston — Pokiston hududlararo forumini tashkil etishga kelishilib, uning birinchi uchrashuvini shu yil Xorazm viloyatida o‘tkazish taklifi bildirildi.

Ziyorat turizmi sohasida tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalari alohida muhokama qilindi. Ikki mamlakat xalqlari o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash maqsadida joriy yilda Pokistonda O‘zbekiston madaniyati haftaliklari va O‘zbekiston kinosi kunlarini o‘tkazishga kelishib olindi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari Boburiylar merosini targ‘ib qilish uchun Lahorda qo‘shma madaniyat markazini tashkil etishni taklif qildi. Muzokaralar davomida xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashilib, ko‘p tomonlama tuzilmalar doirasida yaqin hamkorlikni davom ettirishga qat’iy intilish bildirildi.

Yakunda Shavkat Mirziyoyev Shahboz Sharifni javob tashrifi bilan O‘zbekistonga kelishga taklif etdi.

Oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig‘ilishidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif Qo‘shma deklaratsiyani imzoladilar.

Bundan tashqari, yetakchilar huzurida quyidagi ikki tomonlama hujjatlarini almashish marosimi bo‘lib o‘tdi:

— Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida 2026-2028-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi;

— O‘zbekiston — Pokiston Ishbilarmonlik kengashini tashkil etish to‘g‘risida bitim;

— O‘zbekiston — Pokiston hududlararo forumini tashkil etish to‘g‘risida shartnoma;

— Imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitimga yangi tovarlar ro‘yxatini kiritish haqida bayonoma;

— Port xizmatlari va chegirmalar taqdim etish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Konchilik va geologiya sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Qishloq xo‘jaligi sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari va rivojlanish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Farmatsevtika mahsulotlarini nazorat qilish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— To‘qimachilik va tikuvchilik sanoatida hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Raqamli va axborot texnologiyalari sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Madaniyat sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari va rivojlanish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Buyuk Boburiylar sulolasining ilmiy-ma’rifi, madaniy va me’moriy merosini asrash, o‘rganish hamda keng targ‘ib qilish to‘g‘risida bitim;

— Sport sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Radiatsiya va yadro xavfsizligi sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Ekologiya va tabiiy ofatlar sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Favqulodda vaziyatlarni boshqarish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida shartnoma;

— O‘zbekiston — Pokiston Ishbilarmonlik kengashini tashkil etish to‘g‘risida bitim;

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

Q A R O R I

BUYUK DAVLAT ARBOBI VA SARKARDA, ILM-FAN, MADANIYAT VA SAN’AT HOMIYSI SOHIBQIRON AMIR TEMUR TAVALLUDINING 690 YILLIGINI KENG NISHONLASH TO‘G‘RISIDA

Buyuk davlat arbobi va sarkarda, Ikkinchi Uyg‘onish davri — Temuriylar Renessansi bunyodkori Amir Temur milliy davlatchiligimiz va jahon tarixida beqiyos o‘rin tutadi.

Mustabid tuzum tomonidan nohaq qoralab kelingan bu ulug‘ zotning muborak nomi va xotirasi mustaqillik yillarida tarixiy adolat asosida qayta tiklandi. Sohbiqiron Amir Temur siymosi milliy davlatchiligimiz timsoliga aylanib, o‘zlikni anglash, an’ana va qadriyatlarimizni tiklash borasida xalqimizga ulkan ma’naviy kuch bag‘ishlab kelmoqda.

Toshkent, Samarqand, Shahrisabz shaharlarida Amir Temur haykallari o‘rnatilgani, Temuriylar tarixi davlat muzeyi hamda Xalqaro Amir Temur jamoat fondining faoliyati yo‘lga qo‘yilgani, “Amir Temur” ordeni ta’sis qilingani, yurtimizdagi ko‘plab ko‘cha va xiyobonlarga ulug‘ ajdodimiz nomi berilganini alohida qayd etish lozim.

Mamlakatimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichi — Uchinchi Renessansga qadam

qo‘yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Sohbiqiron Amir Temurning shaxsiyati, buyuk ajdodimizning bashariyat tarixi va Turon tamaddunidagi o‘rni hamda temuriylarning boy va betakror merosini chuqur o‘rganish, yurtimiz va chet ellarda keng ommalashtirish maqsadida qaror qilaman:

I. Maqsad

1. Mazkur qarorning asosiy maqsadi buyuk ajdodimiz asos solgan Ikkinchi Uyg‘onish davrining milliy va umuminsoniy mohiyati, yosh avlodni Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari etib tarbiyalash borasidagi ulkan o‘rni va ta’sirini inobatga olib, ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan tashkiliy-amaliy, ilmiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish hisoblanadi.

II. Tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar

2. Fanlar akademiyasi, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Oliy ta’lim, fan

va innovatsiyalar vazirligi, Madaniyat vazirligi, Mudofaa vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamda Xalqaro Amir Temur jamoat fondining quyidagi takliflari ma’qullansin:

a) joriy yilda Sohbiqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash;

b) har yili aprel oyini “Amir Temur oyligi” deb e’lon qilish va uning doirasida umumta’lim maktablari, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, harbiy qismlar va harbiy ta’lim muassasalari, korxona va tashkilotlar, mahallalarda temurshunos olimlar, yozuvchilar va san’atkorlar ishtirokida uchrashuvlar, badiiy-ma’rifiy tadbirlar uyushtirish.

3. Quyidagilarni nazarda tutuvchi temuriylar davri tarixini tizimli o‘rganish va ilmiy natijalarni keng targ‘ib etish bo‘yicha 2030-yilgacha mo‘ljallangan “yo‘l xaritasi” 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

Davomi 2-betda

Alisher TO‘XTAYEV:

“O‘ZBEKISTON VA POKISTON BUYUK SIVILIZATSIYALAR ZAMINI, YAXSHI DO‘ST VA HAMKOR MAMLAKATLARDIR”

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Pokistonga davlat tashrifi arafasida O‘zbekistonning Islomoboddagi elchisi Alisher To‘xtayev “Dunyo” axborot agentligiga intervyu berib, ikki va ko‘p tomonlama formatlar doirasidagi O‘zbekiston — Pokiston hamkorligining bugungi holati, munosabatlarning ustuvor yo‘nalishlari va istiqbollari haqida fikr bildirdi.

— Suhbatimizni O‘zbekiston — Pokiston munosabatlari tarixi va rivojlanish bosqichlari haqidagi fikrlaringiz bilan boshlasak.

— O‘zbekiston va Pokistonni azaldan tarixiy, an’anaviy do‘stlik rishtalari, din mushtarakligi, urf-odatlar va madaniy qadriyatlar o‘xshashligi kabi umumiy jihatlar bog‘lab turadi. Bu umumiylik so‘nggi yillarda yaqqol namoyon bo‘ldi va ikki davlat o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-gumanitar hamkorlikning drayveriga aylandi.

Davomi 2-betda



Inson qadrini ulug‘lash, xalq bilan ochiq muloqot, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokiga keng imkoniyat yaratish — zamonaviy demokratik jamiyatning muhim belgisi. Shu ma’noda, Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llaydigan har bir Murojaatnomasi xalq ishonchini mustahkamlashga qaratilgan dasturiy hujjat sifatida namoyon bo‘lmoqda.


HAR BIR TASHABBUS FAROVON HAYOT POYDEVORI

Mamlakatimizda so‘nggi yillardagi keng ko‘lamli islohotlar bugun samarasini berib, ulkan marralarga erishilayotgani alohida e’tiborga molik. Prezidentimizning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga navbatdagi Murojaatnomasida 2025-yil yakunlari tahlil qililib, kelgusidagi rejalar, maqsad-vazifalar belgilab berilar ekan, mamlakatimiz erishgan yutuqlar keng e’tirof etildi.

Davomi 4-betda



Taraqqiyot yo‘li



ERTANI BUGUNDAN YORUG‘ QILMOQ SHIJOATI

SINOVLARNI MARDONA YENGIB,
SALMOQLI NATIJALARGA ELTADI

Xalqparvar ijtimoiy davlat qurish, inson qadrini ulug‘lash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadiga aylangan. Dunyoda geosiyosiy va iqtisodiy keskinlik avj olib borayotgan hozirgi murakkab davrda xalqimiz bilan hamjihatlikda ish olib borilayotgani turli sinovlarni mardona yengib o‘tishgagina emas, balki salmoqli natijalarga ham muhim zamin yaratmoqda.

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha
mintaqaviy tajriba markazi

Azamat PARDAYEV,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish
markazi direktori

Davlat va jamiyat o‘rtasida ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish orqali davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish yurtimizdagi islohotlarning muhim yo‘nalishiga aylandi. Bu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlari nafaqat ijtimoiy muammolarni hal etish, balki davlat siyosatida ham muhim hamkor sifatida maydonga chiqmoqda.

Shu bois, so‘nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati tubdan takomillashtirilyapti. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga fuqarolik jamiyati institutlariga bag‘ishlangan alohida bob kiritilib, jumladan, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi mustahkamlab qo‘yildi.

Sohaga oid qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ham qabul qilindi. Xususan, 2025-yil 21-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun bilan fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga daxldor 10 ta qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, 2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi, Prezidentimizning “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni erkin va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilishiga xizmat qilmoqda.

Joriy yilga mo‘ljallangan davlat dasturida bu jabhadagi ishlarni yanada kengaytirish va yangi bosqichga ko‘tarish bilan bog‘liq ustuvor vazifalar belgilanmoqda. Mazkur strategik hujjat doirasida nazarda tutilgan chora-tadbirlar fuqarolik jamiyatini faqat kuzatuvchi emas, balki davlat boshqaruvida mas‘uliyatli hamkor,

ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi, jamoatchilik manfaatlarini ifodalovchi va ijtimoiy muammolar yechimida amaliy ishtirok etuvchi kuch sifatida shakllantirishga qaratilgan.

Ushbu vazifalar fuqarolik jamiyati institutlarining tashkiliy, moliyaviy va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni oshirish, davlat — jamiyat — biznes o‘rtasida barqaror hamkorlik modelini yaratishni nazarda tutadi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni umumiy shiorlar doirasida emas, balki aniq mexanizm va amaliy chora-tadbirlar orqali ta‘minlash ustuvor maqsad etib belgilangan. Shu maqsadda fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida tizimli muloqot muhitini shakllantirish hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faolligini oshirish borasida qator loyihalar amalga oshiriladi. Xususan, davlat organlari, NNTlar, OAV va xalqaro tashkilotlar o‘rtasida ochiq muloqot platformasini yaratish maqsadida fuqarolik jamiyati haftaligi o‘tkaziladi.

Tabiat sofligi – barqarorlik omili



Zikrilla ALIMOV,
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza
qilish texnologiyalari
ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya
mudiri, texnika fanlari doktori

Mamlakatimizda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilishga davlat siyosatining eng muhim ustuvor vazifalaridan biri sifatida alohida e‘tibor qaratilmoqda. So‘nggi yillarda bu jabhada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar barqaror rivojlanishga erishishda o‘z samarasini beryapti.

O‘tgan yili yer, suv, havo musaffoligini ta‘minlash, tabiiy muvozanatni asrash borasida muayyan natijalarga erishildi. Jumladan, atmosfera, yer va suv resurslari hamda atrof-muhitni monitoring qilish ishlari natijasida 73 raqamlarda emas, balki odamlar hayotida, mahalla darajasida sezilmoqda. Bu esa ijtimoiy himoya sohasida tanlangan yo‘l to‘g‘ri ekanini, inson qadri va farovonligiga qaratilgan siyosat kelgusida ham barqaror rivojlanish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilishini anglatadi.



korxonalarini modernizatsiya qilinadi. Shu maqsadda yirik korxonalarga filtr, tozalash inshooti va havoqa chiqariladigan zararli moddalarni monitoring qilish stansiyasini o‘rnatish uchun kredit liniyalarini ochish ko‘zda tutilgan.

Toshkent shahri atrofida joylashgan issiqxonalarini filtr bilan ta‘minlash maqsadida bunday vositalarni o‘rnatish xarajatlarining 50 foizigacha qismini qoplab berish amaliyoti joriy etiladi. Qolaversa, bu sohada tadbirkorlarni keng qo‘llab-quvvatlash va faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashish maqsadida agroklastlar tashkil qilinadi. Uning tarkibiga o‘tgan issiqxonalariga subsidiya taqdim etish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi. Agroklastlarda issiqxonalar markazlashgan qozonxonalar orqali isitiladi.

Davlat dasturida belgilangan yana bir muhim vazifa chang-to‘zonlar tez-tez sodir bo‘ladigan hududlarda aholi salomatligini asrash uchun zarur tadbirlarni amalga oshirishdir. Shu

maqsadda shaharlarda tabiiy shamol aylanishini kuchaytirishga qaratilgan tadqiqotlar o‘tkazilib, aholi uchun ekologik qulay yashash sharoitini yaratish choralari ko‘riladi. Bundan tashqari, suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha keng qamrovli ishlar ko‘zda tutilgan.

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishlarini o‘rganish universiteti (Green University) huzurida atrof-muhit ifloslanishini o‘rganish uchun maxsus laboratoriya tashkil qilindi. Havo, suv va tuproq ifloslanishini chuqur o‘rganish asosida ilmiy yechimlar ishlab chiqish orqali olib borilayotgan islohotlarning samaradorligi oshiriladi.

Bu ishlarning muhimligi shundaki, ular nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlar uchun ham yashashga yarqli muhitni saqlab qoladi. Ekologik toza texnologiyalar joriy etilishi, kambag‘al oilalarning bandligini ta‘minlash, xalqaro hamkorlik orqali yangi tajribalarni o‘zlashtirish mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yanada rivojlaniradi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Bahor XIDIROVA tayyorladi.

Samara nafaqat raqamlarda,
balki odamlar turmushida ham aks etmoqda

Farid NAZAROV,
Ijtimoiy himoya milliy agentligi
bo‘lim boshlig‘i

Mamlakatimizda ijtimoiy xizmat va yordamlarni taqdim etish, aholini qo‘llab-quvvatlash tizimi bosqichma-bosqich yangilanmoqda. Bu jarayonda faqat moddiy yordam bilan cheklanib qolmasdan, aholining turli qatlamlari uchun kompleks xizmatlar ko‘rsatishga alohida e‘tibor qaratilyapti. Ijtimoiy ish amaliyotida muammoni qayd etish emas, balki insoni o‘lim bilan muloqotni kuchaytirish, ko‘mak va yordamga muhtojlarni qo‘llab-quvvatlashda eng samarali institutdir.

Shu nuqtayi nazardan, joriy yilgi davlat dasturining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ijtimoiy himoya sohasiga bag‘ishlangani ehtiyojmand qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish hamda mahalla darajasida manzilli yordam mexanizmlarini kuchaytirishda muhim omil bo‘ladi. Mazkur maqsadlarga erishishda jamoatchilik ishtirokining o‘rni beqiyosdir.

Jumladan, bolalarni himoya qilish va zo‘ravonlikning oldini olish sohasida davlat

qat‘iy davom ettirilishini alohida ta‘kidladi va tegishli vazifalar belgilab berildi.

Shu asosda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha ishlab chiqilgan islohotlar dasturlari va Prezidentimizning “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni loyihasida muhim chora-tadbirlar o‘z aksini topdi. Hujjat loyihasi umumxalq muhokamasiga qo‘yilib, olimlar, ekspertlar, keng jamoatchilik va xalqimiz tomonidan chuqur o‘rganildi, uni yanada takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab taklif hamda tashabbuslar bildirildi.

Joriy yilga mo‘ljallangan davlat dasturida jamiyatimizni yanada ravnaq toptirish, turli sohalarni modernizatsiya qilish borasida ilgari surilgan chora-tadbirlar nimalaridan iborat? Ularning o‘z vaqtida hayotga tatbiq etilishi jamiyat taraqqiyotini yanada yuksaltirishda qanday ahamiyat kasb etadi? Tegishli davlat tashkilotlari mas‘ul xodimlari, ilm-fan va tahlil markazlari ekspertlarining shu xususdagi fikrlari bilan qiziqdik.

siyosati tizimli va kompleks yondashuvga asoslanmoqda. Ta‘lim, tarbiya, sport hamda ijodiy tashkilotlarda bolalar xavfsizligini ta‘minlash ustuvor vazifa sifatida belgilandi, axborot tizimlari orqali nazoratni kuchaytirish va litsenziyalash talablarini takomillashtirish rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, bolalarni sog‘lig‘i va ma‘naviy rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi axborotdan himoya qilish tizimini mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xalqaro ilg‘or tajribani inobatga olgan holda qonunchilik bazasini kuchaytirish, profilaktika va javobgarlik mexanizmlarini aniq belgilash orqali bolalar uchun xavfsiz va sog‘lom axborot muhitini shakllantirish maqsad qilingan.

Inklyuziv ta‘limni rivojlantirish borasidagi ishlar ham takomillashtirib boryapti. Joriy yilda bu borada umumiy o‘rta ta‘lim tizimini uslubiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, pedagog va psixologlar uchun zamonaviy kompetensiyalarni joriy etish rejalashtirilgan.

Yurtimiz bo‘ylab kamida 10 ta tuman va shaharda hududiy ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ular uchun binolar qurish yoki moslashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash nazarda tutilgan. Bunda davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligida kompleks ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.

Reabilitatsiya xizmatlarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida kasallikning ilk bosqichidan boshlab uzluksiz reabilitatsiya tizimini joriy etish, bu yo‘nalishda mutaxassislar sonini oshirish hamda tibbiy xodimlar malakasini rivojlantirish belgilangan.

Xulosa o‘rinda aytish joizki, mamlakatimizdagi islohotlar ijtimoiy himoyani yangi mazmun bilan boyitib, uni inson hayotiga yaqin, ochiq va samarali tizimga aylantirmoqda. Ijtimoiy xizmatlar va yordamning kengayishi, yangi xizmat turlari joriy etilishi va mahalla darajasida manzilli yondashuvning mustahkamlanishi har bir fuqaroning ehtiyoji e‘tibor markazida ekanini namoyon etadi.

Eng muhimi, islohotlarning samarasi bugun raqamlarda emas, balki odamlar hayotida, mahalla darajasida sezilmoqda. Bu esa ijtimoiy himoya sohasida tanlangan yo‘l to‘g‘ri ekanini, inson qadri va farovonligiga qaratilgan siyosat kelgusida ham barqaror rivojlanish uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilishini anglatadi.



MUSHTARAK MAQSADLARGA YETAKLAYOTGAN BIRDAMLIK

Bugungi izchil islohotlar investorlarning mamlakatimizga qiziqishini tobora oshirmoqda. Taraqqiy etgan davlatlar biz bilan hamkorlik qilishga intilyapti. Yangi O'zbekiston tashqi siyosatida davlatlararo munosabatlار faqat siyosiy muloqot yoki iqtisodiy manfaatlar emas, balki ta'lim, ilm-fan va inson kapitalini rivojlantirish orqali mustahkamlanayotgani ham bor gap.



Bahodir MA'MUROV,
Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor

Prezidentimizning yaqinda Turkiyaga navbatdagi rasmiy tashrifi har tomonlama aloqalarni mazmunan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Mazkur tashrif do'stlik rishtalariga tayangan munosabatlarni zamonaviy strategik sheriklik darajasiga ko'tarish, eng muhimi, kelgusi taraqqiyotni belgilovchi sohalar, xususan, ta'lim va innovatsiyalarni hamkorlik asosiga aylantiradi.

Bu galgi tashrif ikki davlat o'rtasida siyosiy ishonch, iqtisodiy teng manfaatdorlik va intellektual salohiyat uyg'unlashayotganini yaqqol namoyon etdi. Ayniqsa, oliy ta'lim va ilm-fan sohasidagi hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgani tashrifning uzoq muddatli ahamiyatini belgilab bermoqda. Davlat rahbarlarining tor doiradagi uchrashuvi, oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining to'rtinchi yig'ilishidagi ishtiroki bilan bir qatorda Istanbulda birinchi o'zbek maktabining barpo etilishi ikki mamlakat o'rtasida ilm-fan sohasidagi

hamkorlikning o'ziga xos namunasi sifatida tarixga muhrlandi.

Har bir davlatning raqobatbardoshligi ta'lim tizimi bilan baholanadi. Shu ma'noda, O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi hamkorlikda ta'lim masalasining ustuvor yo'nalish sifatida o'rin egallagani bejiz emas. So'nggi yillarda ikki davlat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida qo'shma ta'lim dasturlari, akademik almashinuv, ilmiy tadqiqotlar va pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha tizimli ishlar bajarilmoqda.

Yurtimizda ta'lim sohasiga qaratilayotgan yuksak e'tibor oliy ta'lim muassasalari oldiga yangi vazifalarni qo'yarmoqda. Xalqaro tashriflar natijasida berilayotgan imkoniyatlar o'qitish sifatini oshirish, xalqaro tajribani atroflicha o'rganish va uni milliy ta'lim tizimiga moslashtirishni talab etadi. Turkiya universitetlari bilan hamkorlik yoshlarimizning dunyoqarashini kengaytirish, ilmiy salohiyatini oshirish

O'qitish sifatini ta'minlash mustaqil, shaffof va doimiy takomillashtirishga qaratilgan mexanizmlar orqali yo'lga qo'yilmasa, har qanday islohot formal tusda qolib ketishi mumkin.



Yangicha yondashuvlar

O'QUVCHILAR HAM O'QIB, HAM DAROMAD TOPMOQDA



Zaynura opa kichiklik paytidayoq momosi yonida o'tirib, kashta, do'ppi tikish, zardo'zlik hunarini o'rgangandi. To'g'ri, avvaliga bu shunchaki qiziqish bo'lgan. Ammo bir kun kelib, bu yaxshigina daromad manbaiga aylanishi uning xayoliga ham kelmagan.



Oradan yillar o'tib, ayol tadbirkorlik bilan shug'ullanishni niyat qiladi. O'zicha qaysi yo'nalishda ish boshlash yaxshiroq ekanini haqida o'ylaydi. Biri ma'qul kelgandek bo'ladi, yana boshqasiga unchalik xohishi yo'q. Oxiri yaqinlari bilan maslahatlashdi. Tajribali mutaxassislar ishini o'rganib chiqdi. Biroq boshlayotgan ishi haqida o'ziga o'ziga tushuncha bo'lmasa qiyin ekan. Shu sabab hech bir ishga qo'li bormadi.

Bir kuni xayol bilan qo'lga igna olib, oppoq matoga kashta tika boshladi. Qisqa muddatda o'ziga xos nafis kashta paydo bo'ldi. Zaynura opa bu ishidan zavqlanib, yana davom ettirdi. Tayyor kashtalarni ko'rsatgan kuniyoq qo'shnilari xaridor bo'ldi. Ayol shu tariqa o'z yo'lini topgandi. Asta-sekin buyurtmalar ham qabul qila boshladi.

Ko'p o'tmay, "Kesh grant siti" oilaviy korxonasiga asos soldi. Shundan so'ng hunarmandlikni yo'lga qo'ydi. Kashta, do'ppi, to'n, kelinlarop milliy liboslar tika boshladi. Shahrisabz tumanidagi bandligi ta'minlagan xotin-qizlarni ishga olib, o'zi ularga hunar o'rgatdi.

2015-yilda faoliyatini boshlagan bo'lsam, shu paytgacha qadar 500 ga yaqin shogird tayyorladim, — deydi Zaynura Hoshimova. — Hozir korxonamizda 70 ayol mehnat qilmoqda. Shular qatori imkoniyat cheklangan 30 xotin-qizni ham ishga olganmiz. Yumushimiz uncha og'ir emas. Ko'pchilik uyda ishlaydi. Bajargan ishiga qarab haq to'laymiz. Milliy uslubda tikilgan kiyimlarga talab yuqori. Shu bois, mahallalardagi uy bekalar bilan ham kelishuv asosida ishlaymiz. Ya'ni kerakli mato bilan ta'minlab, buyurtma beramiz. Bu usuldagi ish biz uchun ham, uy bekalar uchun ham qulay.

Tadbirkor keyingi paytda nogironligi bor xotin-qizlarga hunar o'rgatish uchun o'quv kursini ham ochgan. Qiziquvchilar kursda uch oy kasb sirlarini o'rganib, hamkorlikda mehnat qilishi mumkin.

Ikkinchi guruh nogironim. Ilgari biror joyda ishlab, daromad topishni juda xohlardim. Lekin kim ham meni ishga olardi degan xayolda yurardim, —

deydi Zulayho G'ofurova. — Bu yerda hunarmandlik yo'nalishi ochilganini eshitib, ishonqiramay kelgandim. Zaynura opa hech ikkilanmay qabul qildi. O'zi o'qitib, hunar o'rgatdi, ishga ham qoldi. Juda mamnunman. Momalarimizdan qolgan milliy hunarmandlikni davom ettiryapmiz. Yoshlarga o'rgatamiz. Biz tikkan buyumlardan odamlar foydalanayotganini ko'rib, xursand bo'lamiz. Bu ishga mehrimizni yanada oshiradi. Hozir oyiga 3 million so'mga yaqin maosh olyapman. Ro'zg'orga nafim tegyapti. O'zimni oilam, jamiyat uchun kerakli inson sifatida his qilyapman.

"Kesh grant siti" oilaviy korxonasi hozir Shahrisabz tumanidagi 1-texnikumda faoliyat yuritaypti. Bu texnikumda o'qiyotgan yoshlar uchun juda qulay. Tadbirkorning ta'kidlashicha, mazkur texnikum o'quvchilaridan 20 ga yaqini korxonaga ishga qabul qilingan. Ular ham ishlab, ham o'qishni davom ettirmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 23-oktabrdagi "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga



oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 2030-yilga qadar tizimni isloh qilishning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari belgilab berilgan. Jumladan, 9-sinf bitiruvchilarining kasbiy ta'limga qamrovini amaldagi 29 foizdan 50 foizga yetkazish, dual ta'limni joriy etish belgilangan. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash uchun hududlarda muayyan ishlar qilinmoqda. Yoshlar kasb-hunar o'rganishi uchun qulay sharoit yaratilyapti.

Xususan, Shahrisabz tumanidagi 1-texnikumda 961 yigit-qiz tahsil oladi. Asosan, qishloq xo'jaligi yo'nalishiga ixtisoslashgan o'quv maskanida yoshlarning ham ishlab, ham ta'lim olishi uchun qator korxona va muassasalar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

O'tgan yili Zaynura Hoshimova rahbarligidagi milliy hunarmandlik markazi mas'ullarini texnikumimizga taklif etgandik. Tadbirkor biz bilan hamkorlik qilishga rozi bo'ldi. Shundan so'ng faoliyat yuritishi uchun bo'sh turgan binodan joy berdik. Bu yoshlar uchun ham katta imkoniyat, — deydi texnikum direktori O'tkir Turpov. — Hozir o'quvchilarimiz muntazam ish o'rganmoqda. Avtomobil ustaxonalari, ishlab chiqarish sexlari rahbarlari bilan kelishuv tuzganmiz. Shuningdek, o'quv muassasamizda qishloq xo'jaligi yo'nalishi bo'yicha ham amaliy bilim berilmoqda. Ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy o'quv qurollari xarid qilish hamda faol o'qituvchi va o'quvchilarni doimiy rag'batlantirib borish uchun qo'shimcha mablag' ishlab topishga ham harakat qilyapmiz. Jumladan, texnikumda hozir o'rtdakchilik yo'lga qo'yildi. Chorvachilik tashkil etilgan. Ko'chatchilik bog'i hamda issioxona mavjud. Umumiy hisobda joriy yil yakuniga qadar bir milliard so'm ishlab topishni maqsad qilganmiz.

Ikki oydan buyon korxonada hunarmandlikning iroqi kashachilik yo'nalishida ishlab kelyapman. Hozir texnikumda tikuvchilik bo'yicha tahsil olyapman, — deydi Sitora Mamatqulova. — O'qish jarayonida ishlash yaxshi ekan. Chunki amaliy tajribam oshyapti. Shu bilan birga 1,5 million so'm maosh berishyapti. Ish joyim texnikum hududida bo'lgani qulaylik tug'dirdi. Tajribam oshishi uchun astoydil harakatdaman. Kasb sirlarini puxta o'rganib olsam, rejalarni katta. Kelgusida o'zim mustaqil tikuvchilik sexi ochmoqchiman.

Zaynura opaning aytishicha, bugun korxonasida tikilayotgan mahsulotlar Qashqadaryo viloyatidan tashqari Xorazm, Buxoro, Samarqand bozorlarida ham xaridorjir. Hatto Tojikiston, Qirg'iziston va Turkiyada sotilmoqda. Korxona oyiga 300 million so'mdan ortiq daromad ko'ryapti. Tadbirkorning maqsadi kelgusida yangi ish o'rnlari ochib, mazkur texnikum bitiruvchi qizlarini to'liq ishga olish. Shuningdek, imkoniyat cheklangan xotin-qizlar hamda mingdan ortiq ishsiz bo'lgan uy bekalarini bandligini ta'minlash niyatida.

Akbar RAHMONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

YURIDIK TA'LIM ISLOHOTGA MUHTOJMI?



Tahlil va taqqos

Huquqiy davlat haqida ko'p gapiramiz. Ammo bir savol bor: huquqiy davlat qurmoqchi bo'lsak, uni kim barpo etadi va bu boradagi islohotlar amalda hayotga qanday tatbiq etiladi?



Ikrom ERGASHEV,
yuridik fanlar doktori, professor

Yuridik ta'lim oddiy ta'lim yo'nalishi emas. U davlat bilan fuqaro o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi, sud qarorlari sifatida, huquqni qo'llash amaliyoti va jamiyatda adolat tuyg'usiga bevosita ta'sir etadi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ko'p hollarda bitiruvchilar qonun normalarni biladi, lekin ularni tahlil qilish, talqin etish va aniq vaziyatda qo'llashda qiynaladi. Nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi uzilish, huquqiy fikrlashdan ko'ra formal

bilimga urg'u berilishi yuridik ta'lim oldidagi eng katta muammolardan.

Prezidentimizning 2025-yil 26-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va ilm-fanni yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni yuridik ta'lim va ilm-fan sohasidagi islohotlarni belgilab berdi. Farmon mazmunidan kelib chiqib aytsek, endi ushbu yo'nalishda asosiy e'tibor natijaga yo'naltirilgan ta'lim, amaliy ko'nikmalar va xalqaro standartlarga muvofiq sifat tizimiga qaratilishi lozim. Ya'ni masala faqat o'quv rejalarini yangilashda emas, balki butun ta'lim madaniyatini o'zgartirishda.

Xalqaro amaliyotda

Yuridik ta'limdagi muammolar faqat O'zbekistonga xos emas. Ko'plab davlatlar bu bosqichdan o'tgan. Shu nuqtayi nazardan, Buyuk Britaniya oliy ta'lim tizimi tajribasi alohida e'tiborga loyiq. Universitetlarga berilgan akademik mustaqillik, sifati ta'minlashning mustaqil mexanizmlari, talabalarni ta'lim sifatiga jalb etish amaliyoti — bularning barchasi o'qitish jarayonini nazorat qilishdan ko'ra uni yaxshilashga xizmat qiladi. Ta'lim sifati mustaqil institutlar orqali baholanadi. O'quv dasturlari doimiy qayta



ko'rib chiqiladi. Talabalarga esa faol ishtirokchi sifatida qaraladi. Eng muhimi, o'qitish natijasi bitiruvchining amalda nima qila olishi bilan o'lchanadi.

Buyuk Britaniya oliy ta'limi natijalariga nazar tashlasak, muvaffaqiyat tasodif emas, balki aniq institutsional yechimlar samarasi ekanini ko'ramiz. Bu o'rinda oliy ta'lim tizimida sifati ta'minlashning aniq instrumentlariga e'tibor qaratish o'rinni. Masalan, Oliy ta'limda sifat kafolati agentligi ishlab chiqqan Buyuk Britaniya oliy ta'lim sifat kodeksi universitetlar uchun oddiy ma'muriy hujjat emas, balki sifat madaniyatini shakllantiruvchi konseptual asos vazifasini bajaradi. Unda ta'lim natijalari, talabalarining bilim olish ko'nikmasi, adolati baholash va muntazam takomillashish kabi tushunchalar markaziy o'rin egallaydi. E'tiborli jihati shundaki, bu standartlar universitetlarni



cheklamaydi, aksincha, ularni natijalar uchun real javobgar qiladi.

Yana bir muhim misol, ta'lim yo'nalishlari bo'yicha mezonlar amaliyotidir. Bu orqali har bir ta'lim yo'nalishi, jumladan, yuridik ta'lim bo'yicha bitiruvchi qaysi fanlarni bilishi emas, balki qanday kompetensiyalarga ega bo'lishi kerakligi aniq belgilab qo'yiladi. Shu bilan birga, ushbu mamlakat universitetlarida sifati ta'minlash PDCA sikli asosida amalga oshiriladi: ta'lim dasturi rejalashtiriladi, joriy etiladi, baholanadi va muntazam takomillashtiriladi. Bu yondashuv yuridik ta'limga "bir marta tasdiqlangan" tizim emas, balki uzluksiz rivojlanib boruvchi jarayon sifatida qarash imkonini beradi. Aynan shu mexanizmlar O'zbekistonda yuridik ta'limni transformatsiya qilishda ilhomlantiruvchi va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Keng qamrovli transformatsiya

Shu o'rinda yana bir savol tug'iladi: mazkur jarayon qanday transformatsiyani talab qiladi? Bu yerda gap tashqi shakllarni o'zgartirish yoki alohida loyihalarni joriy etish haqida emas. Asosiy masala — yuridik ta'limda sifatga munosabatni tubdan o'zgartirishda. Universitetlarning akademik va moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish, ta'lim dasturlarini xalqaro standartlar asosida qayta ko'rib chiqish, baholash tizimini natijaga yo'naltirish kabi choralar aynan shu transformatsiya markazida turadi. Shu ma'noda, transformatsiya deganda bitta



universitet yoki alohida fakultet doirasidagi o'zgarish emas, balki butun tizimni qamrab oladigan jarayon nazarda tutiladi. O'qitish sifatini ta'minlash mustaqil, shaffof va doimiy takomillashtirishga qaratilgan mexanizmlar orqali yo'lga qo'yilmasa, har qanday islohot formal tusda qolib ketishi mumkin. Xalqaro tajriba milliy sharoitga moslashtirilgan holda, izchil va bosqichma-bosqich joriy etilsa, yuridik ta'limdagi transformatsiya haqiqiy mazmunga ega bo'lib, huquqiy davlat qurishga xizmat qiladigan barqaror tizim shakllanishiga zamin yaratadi.

Qanday huquqshunoslar kerak?

Zamonaviy huquqshunos bilimlari bo'lisidan tashqari qaror qabul qilish mas'uliyatini his etadigan shaxs bo'lishi kerak. Shu ma'noda, bugun jamiyatga huquqiy vaziyatni tahlil qila oladigan, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan, xalqaro huquqiy muhit va standartlarni tushunadigan, raqamli texnologiyalar hamda sun'iy intellekt bilan ishlay oladigan huquqshunoslar zarur. Bu talablar tasodifiy emas, ular ta'limni natijaga yo'naltirish g'oyasidan kelib chiqadi.

Shu bois, davlatimiz rahbarining mazkur farmonidagi vazifalar yuridik ta'limni isloh qilish o'quv rejalarini yangilash barobarida kadrlar tayyorlash falsafasini tubdan o'zgartirishga xizmat qilishini nazarda tutadi. Yuridik ta'lim ana shu talablarga javob bermasa, islohotlar samarasi cheklanib qoladi.

Yuridik ta'limni isloh qilish sohaviy yoki akademik masala emas. Bu — huquqiy davlatning kelajagini belgilaydigan strategik qaror. Chunki qonunlar o'z-o'zidan ishlamaydi. Ularni inson qo'llaydi. Insonni esa ta'lim shakllantiradi. Agar biz adolati sud, qonun ustuvorligi va davlatga ishonchni mustahkamlashni istasak, yuridik ta'lim masalasiga ikkinchi darajali mavzu deb emas, davlatchilik poydevori sifatida qarashimiz shart.



9-fevral – Alisher Navoiy tavallud topgan kun

Mulohaza

ILM-U URFON — QONIMIZGA SINGGAN QADRIYAT

**Ilm insonning dunyoqarashini kengaytiruvchi,
unga mustaqil fikrlash, yangicha qaror qabul qilish va zamon talablariga
mos yashash imkonini beruvchi asosiy mezondir. Ilmli millat — kuchli
davlatning garovi.**

Bugungi globallashuv va axborot asrida bilimning ahamiyati yanada ortib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish, raqamli iqtisodiyotda ishtirok etish, ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish uchun, eng avvalo, ilmli avlod kerak. Zero, Hazrat Alisher Navoiy bejiz:

*Agar hikmatga bo'lsa iltifoting,
Ki, bo'lsin Nuh umricha hayoting,
demagan.*

Xalqimiz nazdida azaldan ilmlik insonning eng go'zal va e'zozli fazilatlaridan biri sifatida qadrlanib kelgan. Chunki bilim faqat o'qish va yozish malakasi emas, balki ma'naviyat, zehn va jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonidir. Shu bois, yurtimiz tarixidagi ulug' mutafakkirlar, so'z san'atkorlari va ma'rifat peshvolari savod masalasiga alohida urg'u bergan. Jumladan, Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn", "Lison ut-tayr" asarlarida til, ma'no va ma'rifating chuqur ifodasi orqali ilm-ma'rifatning inson kamolotidagi beqiyos ahamiyati yoritilgan. Munis Xorazmiy asarlarida ham yosh avlodga savod o'rgatishning ahamiyati, uning zamon va taraqqiyot

xususiy sektor bilan hamkorlikda bog'chalaridagi o'rinlar soni ikki yarim millionga, qamrov darajasi 78 foizga yetkazildi. Ayni vaqtda mamlakatimizda 7 mingta davlat bog'chasi va 32 mingga yaqin xususiy bog'cha faoliyat ko'rsatmoqda.

Haqiqatan, bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan mustahkam zanjir yaratildi. O'tgan davr mobaynida maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim sohasida yagona davlat siyosati ishlab chiqildi va tizim to'liq transformatsiya qilindi. Bola bog'chadan maktabni bitirishiga qadar bo'lgan jarayonda milliy qadriyatlarimizga tayangan tarbiya, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga asoslangan ta'lim, yoshlarning qiziqishlari va iqtidoriga qarab seleksiya qilish bo'yicha samarali tizim shakllandi. Bu esa yigit-qizlarning bolaligidanoq mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, ta'lim sohasi vakillarini qo'llab-quvvatlash, ularning mehnatiga munosib baho berish hamda ijtimoiy maqomini oshirish yo'lida muhim

mehnat qilayotgan pedagoglarning nufuzi yanada yuksalishi kutilmoqda. Shuningdek, maktab direktorlari, ularning o'rinbosarlari hamda bog'cha mudirlarining ish haqi sezilarli tarzda ko'tarilib, 7-10 million so'mdan oshdi.

Bunday chora-tadbirlar ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'qituvchi va tarbiyachilarning nufuzini yuksaltirish, yosh avlodning zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashiga zamin yaratmoqda. Ta'lim muassasalarining innovatsion rivojlanishi, zamonaviy o'quv dasturlari va pedagogik yondashuvlarni joriy etish uchun zarur shart-sharoitlar shakllantirilmoqda. Bu yondashuv, birinchi navbatda, pedagog kadrlarning tajribasini oshirish, ta'lim sohasidagi eng ilg'or metodika va innovatsiyalarni o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Ilm ildizi bo'lgan savodxonlik tushunchasi muayyan vaqt muvozanatida jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, madaniy va ruhiy jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda o'z ma'no-mohiyatini kengaytirib boraveradi. Shu nuqtayi nazaridan, O'zbekistonda bugungi kunda yoshlar va kattalar o'rtasida turli yo'nalishlarda savodxonlikni oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, moliyaviy va huquqiy savodxonlikni rivojlantirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan umumiy foydalanish, tibbiy madaniyat va sog'lom turmush tarzini shakllantirish kabi masalalar jamiyat hayotida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Savodxonlikning bu yangi qirralari, avvalo, zamon talabi va har bir fuqaroning rivojlanish yo'lida to'g'ri qaror qabul qilish, imkoniyatlarni anglash va hayotda muvaffaqiyatga erishish garoviga aylanmoqda.

Eng muhimi, hozirgi global raqobat va tezkor o'zgarishlar davrida savodxonlikning zamonaviy yo'nalishlarini egallash insonning kelajak yo'lidagi eng asosiy kapitali bo'lib, jamiyat taraqqiyotining strategik omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan uning mohiyati shaxsning tanqidiy va kreativ fikrlay olishi, to'g'ri qaror qabul qilishi, axborotni saralab, undan samarali foydalanish qobiliyati bilan belgilanadi. Bunday barqaror taraqqiyot, innovatsion salohiyat va global raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Savodxonlik masalasi yangi davrda ilmiy va ma'rifatli avlodni voyaga yetkazish, millatning intellektual salohiyatini yuksaltirish va milliy taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Zotan, asrlar davomida yurtimizda sayqal topib kelgan ilmlik, ma'rifatlik kelgusida ham yangi O'zbekistondan izchil taraqqiyotida va jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashida muhim strategik omil sifatida namoyon bo'lib qolaveradi.

Shuhrat NORMURODOV,
jurnalist

TURKIY TIL VA MILLIY G'URUR RAMZI

Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida barcha sohada amalga oshirilgan islohotlar chuqur tahlil qilinib, istiqboldagi vazifalar belgilab berildi. Davlatimiz rahbari 2026-yilni yurtimizda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qildi. Shuningdek, ijtimoiy-madaniy hayotimizdagi muhim sanalar keng nishonlanishi, jumladan, Mir Alisher Navoiy bobomizning qutlug' tavallud ayyomiga tayyorgarlikni tezda boshlash zarurligini ham alohida qayd etdi.

Turg'un ZIYAYEV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
faxriy doktori, I darajali "Mehnat
faxriysi" ko'krak nishoni sohibi

Hazrat Navoiy xalqimizning ongu tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasidir. U mamlakatimizning g'ururi, shon-sharafini butun dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkori. Qolaversa, adabiy-badiiy ijodi, ilmiy merosi va turkiy adabiy til asoschisi o'laroq, barcha turkiy ellarni o'z qalami bilan birlashtira olgan buyuk siymo.



Mutafakkir adib o'z davrida turkiy tilni she'rini asarini osmoniga ko'tardi. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini yozib, ona tilimizning fors tilidan kam emasligi, aksincha, undan ustun jihatlari ko'pligini ilmiy asosda isbotlab berdi. Shu tariqa bobomiz turkiy tilning bor nazokati va so'z boyligini butun umri, ijodiy faoliyati davomida namoyon qilgan.

Jahon miqyosidagi e'tirof

Insonning quvonchu qayg'usi, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shaxs dunyo adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Buning tasdig'ini turli mamlakatlarda ulug' bobomizga hurmat yuzasidan o'rnatilgan muhtasham haykallar misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, Moskva, Tokio, Boku va boshqa shaharlarda Hazrat Alisher Navoiy xotirasiga ehtirom ramzi sifatida haykallar qad rostlagan.

Zotan, biror millat ma'naviyatiga xos qadriyatlarni boshqa xalqlarning tan olishi, tabiiyki, ana shu xalq tarixiga chuqur hurmat ifodasidir. Bunday e'tirof xalqning g'ururi va iftxorini oshirish, milliy o'zligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ma'naviy yuksalish timsoli

Davlatimiz rahbari 2024-yili Navoiyga tashrifi chog'ida viloyat ma'naviy tarbiya va ma'rifiy yuksalish yo'lida barchaga o'mak bo'lishi kerakligini ta'kidlab, 2025-yilni viloyatda "Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilishni taklif etgan edi. Ushbu tashabbus doirasida respublika tanlovi va navoiyxonlik kechalari o'tkazilishi, yoshlarbop kitoblar chop etilishi, shoir asarlari bo'yicha filmlar tayyorlanishi, "Yangi Navoiy" shaharchasida muhtasham haykal va muzey barpo etilishi g'oyasi ilgari surilgandi.

Tarixga nazar solsak, Alisher Navoiyning 550 yillik yubileyi munosabati bilan 1991-yil O'zbekistonda ilk marta "Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilingan. Mamlakatimiz va xorijdagi ilm-fan muassasalari hamda bir qancha nufuzli maskanlarga bobomiz nomi berilgan. Jumladan, Xalqaro astronomiya uyushmasi Merkuriy sayyorasidagi 15 kraterdan birini Alisher Navoiy nomi bilan atagan. Bundan tashqari, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida Navoiy nomidagi xalqaro mukofot ta'sis etilganini faxr bilan e'tirof etish lozim.

So'nggi yillarda yurtimizda buyuk ajdodlarimizning ma'naviy-ma'rifiy merosini o'rganishga e'tibor tubdan kuchaydi. Xususan, Alisher Navoiy hayoti va ijodini chuqur tadqiq etish, ilmiy-madaniy merosini asrab-avaylash hamda ommalashtirish borasidagi ishlar yangi pog'onaga olib chiqildi.

**Prezidentimizning 2020-yil
19-oktabrdagi tegishli qarori
buyuk shoir va mutafakkir,
atoqli davlat va jamoat arbobi
Alisher Navoiyning boy,
serqirra ijodiy merosini chuqur
o'rganish, asarlarini yurtimizda
hamda xorijiy mamlakatlarda
keng targ'ib qilishda muhim
ahamiyat kasb etmoqda.
Navoiyshunos olimlarimiz
va Alisher Navoiy xalqaro
jang'armasi diqqatga sazovor
xayrli ishlarni bajarmoqda.**

Bobomiz asarlarida inson qadri, komillik va xalq manfaatlari g'oyasi mujassam. Ulug' shoirming "Xamsa" asari 64 tilga tarjima qilingan. Hazrat Navoiyning qo'lyozmalari Rossiya, Buyuk Britaniya, Turkiya, Eron, AQSH va boshqa mamlakatlarning kutubxona hamda muzeylarida eng qimmatli durdona sifatida saqlanmoqda.



uchun zarurligi teran ma'noda ifoda etilgan. U o'z davrining pedagog olimlaridan biri sifatida bolalarning xat-savod chiqarishi va ilm o'rganishini osonlashtirish maqsadida "Savodi ta'lim" asarini yaratgan. Mazkur risolada o'qish va yozishni tez hamda samarali o'rganish, chiroyli xat yozish ko'nikmalarini egallash, shuningdek, husnixatga oid masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Asarda til, yozuv va husnixatning jamiyat hayotidagi o'rni, ayniqsa, ma'naviy boylikni kelajak avlodga yetkazishdagi ahamiyati chuqur yoritib berilgan.

Bu asarlar, umuman olganda, ajdodlarimizning asrlar davomidagi qarashlari va intilishlarini namoyon etadi. Shunday bo'lsa-da, muayyan vaqt siyosiy qarashlarning noxolisligi hamda milliy kamitish ruhida yondashuvlar asosida Turkiston o'lkasi aholisining savodxonligi masalasida soxta va haqiqatga to'g'ri kelmaydigan xulosalar berilgan. Aslida, so'nggi paytlarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 1913-yilda Turkiston o'lkasida 7665 ta maktab va madrasa faoliyat yuritgan. Bu raqamlar ayrim manbalarda qayd etilganidan farqli o'laroq, o'lkamiz aholisining savodxonlik darajasi ancha yuqori bo'lganini ko'rsatadi.

Xalqaro tadqiqot platformalari ma'lumotiga ko'ra, hozirgi kunda O'zbekistonda savodxonlik darajasi 100 foizni tashkil etmoqda. Hisobotda umumjahon savodxonlik darajasiga erishishda O'zbekiston hukumati hamda ta'lim sohasi xodimlarining muhim hisssasi alohida e'tirof etilgan.

Islohotlar natijasida O'zbekistonda maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim sohasiga ajratiladigan mablag' sezilarli oshirildi. Bu o'zgarishlar samarasi o'laroq,

qadamlar qo'yilmoqda. Jumladan, malaka, til bilish, yangi baholash tizimi, fan olimpiadalari kabi mezonlar asosida o'qituvchilarga 10 dan ortiq ustama joriy qilindi. Bundan samarali foydalangan 60 ming o'qituvchi hozir 8-12 million so'm maosh o'laypti. Bog'cha tarbiyachilari oyligi 65 foiz oshirilib, maktab o'qituvchilari maoshiga tenglashtirildi. Bu orqali maktabgacha ta'lim tizimida



"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalari tahririyati" DM

MUASSIS:
**O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va
muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan
tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati
chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-246.
30829 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Bekkul Egamqulov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilmiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.